

JADIDCHILIK NAMOYONDASI ABDURAUF FITRAT O'ZBEK ADABIYOTIDAGI O'RNI

Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti o'qtuvchisi

Keldiyeva SHahnozaxon SHuhratbek qizi

Andijon Davlat Pedagogaika Inisstituti

Maktabgacha talim fakulteti Logopediya yo'nalishi 102-guruh talabasi

Olimjonova Muxlisa Umarjon qizi

ANATATSIYA; ushbu maqola orqali jadidchilik namoyondalari hayoti, xalqni ilm va marifat yo'liga yetaklash yo'lidagi say harakatlari, shuningdek Abdurauf Fitrat xalqning ozodligi va erki uchun qilgan jasoratlari, milliy ongni uyg'otishga qaratilgan asarlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar; jadidchilik nomoyondalari, xalq, ilm, ma'rifat, ozodlik, erk, milliy ong

XX asr boshlarida butun Turkistonda yangi kuchga kira boshlagan jadidchilik harakati o'lkaning barcha sohadagi ishlarining kelajagini belgilab berdi. Jumladan, yangi adabiyot, publitsistika, siyosat va hokazolar. Davr ushbu yo'nalishlarning xarakterini aniqlab bergen namoyandalarini ham o'rtaga chiqardi. Ushbu islohotchilik, ya'ni jadidchilik nomi bilan tarixga kirgan keng qamrovli harakat jamiyatning barcha sohalarini teng qamrab oldi. Abdurauf Fitrat shubhasiz XX asr birinchi choragi Markaziy Osiyo ziyorilarining eng ko'zgan ko'ringan va ta'sir doirasi kuchli bo'lgan Fitratning ilk hayot yo'li haqida, ayniqsa 1909-yilgacha bo'lgan davri borasida biz deyarli hech narsa bilmaymiz. Fitrat ijodi va hayot yo'lini o'rgangan barcha tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, u 1886-yili savdogar oilasida dunyoga kelgan. Fitrat an'anaviy boshlang'ich eski maktabni tugatgandan so'ng o'qishini avval Miri Arab madrasasida, so'ng

Buxorodagi yana bir boshqa madrasada davom ettirgan. Buxoro amiri Abdulahadxon saroyida xizmat qilgan Ne'matulloh Muhtaram XX asr boshlarida tuzgan tazkirasida qayd etishicha, Fitrat yosh bo'lishiga qaramay Buxoro adabiy davralarida yetarli darajada mashhur bo'lgan. U "Mijmar" (Yoqimli hid tarqatuvchi cho'g'don) taxallusi ostida she'rlar yozgan. Ne'matulloh Muhtaram Fitratni Hoji Mulla Abdurauf, deb tilga oladi. Bundan ko'rinadiki, Fitrat yoshlik chog'ida haj amalini bajarish uchun sayohatga chiqqan va Sharqda Turkiya, Hindiston, Arabiston hamda markaziy Rossiya – Moskva, Peterburg bo'ylab sayohat qiladi. Fitrat o'sha vaqtida haj safarining an'anaviy yo'li hisoblangan Hindiston orqali emas, balki temir yo'l bilan Odessa, Turkiya orqali Arabistonga safar qilgan va Hindiston orqali Buxoroga qaytib kelgan. XIX asrning oxirigi choragida Qrimda dunyoga kelgan "usuli jadid" maktablari Rossiya imperiyasining musulmonlar yashaydigan mintaqalarida keng yoyila boshladi. Maktablar Turkistonga ham yoyildi. Lekin bu maktablar dinka zid kelishini da'vo qilgan ulamo qarshiligiga duch keldi. Ayniqsa, bunday qarshilik Buxoroda 1908-yilda ochilgan maktab atrofida juda katta janjalga sabab bo'ldi. Fitrat ana shu maktab janjali ta'sirida yaratgan "Munozara" asari yangi usul maktablardan musulmon dunyosi shariat yuzasidan foydalanishi mumkinligini isbot eta oldi. Faqat shu asarning bosilib chiqishi tufayligina Buxoroda yangi usul maktablari qayta ochildi va ularidan mulla-mudarrislarning tavqi la'natlari olib tashlandi. "Munozara"ning markazida buxorlik yoshlar tashkil etgan birinchi "usuli jadid" maktabi va uning atrofida paydo bo'lgan janjal voqealari turadi. Ushbu maktabning tarixiga qisqacha nazar tashlaymiz. Maktab 1908-yil 5-oktabr kuni Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Homidxo'ja Mehriy va Ahmadjon mahdum Hamid (bu ikkisi Ayniyning madrasadosh do'stlari edi) tarafidan Abdulvohid Munzim hovlisida ochiladi. Oradan deyarli bir yil o'tib, 1909-yil 6-sentabr kuni maktabda tantanali ochiq imtihon o'tkaziladi. Buxoroda jadid maktablarini taqiqiga olib kelgan voqealar aynan shu kuni sodir bo'ldi. Fitrat bu haqda oradan 20 yil o'tib yozgan bir maqolasida shunday eslaydi. "Munozara" Istanbulda chop etilganidan keyin Buxoroga turli yo'llar bilan yashirinchcha olib

kelindi. “Munozara”ning asl forscha matni hatto 1914-yilda ham Rossiya impriyasi hududiga olib kirilishi Peterburgdagi chet el nashrlari senzorligi tarafidan taqiqlandi. “Munozara” Mahmudxo‘ja Behbudiyning yaqin izdoshlaridan bo‘lgan Hoji Muin ibn Shukrulloh tarafidan o‘zbekchaga tarjima qilinib, oldin “Turkiston viloyatining gazeti”ning 1912-yilgi sonlarida, so‘ng 1913-yili kitobcha shaklida Toshkentda bosilib chiqdi. Ushbu asarga birinchi bo‘lib Mahmudxo‘ja Behbudiy, so‘ngra rus olimi V.Andreyevning taqrizlari e’lon qilindi. “Munozara” Istanbulda chop etilganidan keyin Buxoroga turli yo‘llar bilan yashirinchalik olib kelindi. “Munozara”ning asl forscha matni hatto 1914-yilda ham Rossiya impriyasi hududiga olib kirilishi Peterburgdagi chet el nashrlari senzorligi tarafidan taqiqlandi. “Munozara” Mahmudxo‘ja Behbudiyning yaqin izdoshlaridan bo‘lgan Hoji Muin ibn Shukrulloh tarafidan o‘zbekchaga tarjima qilinib, oldin “Turkiston viloyatining gazeti”ning 1912-yilgi sonlarida, so‘ng 1913-yili kitobcha shaklida Toshkentda bosilib chiqdi. Ushbu asarga birinchi bo‘lib Mahmudxo‘ja Behbudiy, so‘ngra rus olimi V.Andreyevning taqrizlari e’lon qilindi. 1917-yildan boshlab Fitrat maorif ishlaridan biroz chekinib, siyosiy faoliyat bilan shug‘ullana boshladi. Buxoro jadidlarining tashabbusi bilan tuzilgan “Yosh buxorolilar” partiyasi sarkotibligi vazifasini bajardi, Samarqandda nashr qilingan “Hurriyat” gazetasida avval faol muallif sifatida qatnashgan bo‘lsa, qisqa vaqt o‘tishi bilan uning bosh muharriri sifatida faoliyat olib bordi. Fitrat bu davrda Rossiyadagi Muvaqqat hukumat bilan o‘zaro tenglik asosida aloqalarni yo‘lga qo‘yish borasida juda ko‘plab maqolalari bilan siyosiy faoliyatini davom ettirdi. Ammo Fitrat orzu qilgan tenglik, hurriyat orzusi bolsheviklar tomonidan chil parchin qilindi. Shu sabab “bolshevik balosi” bosh ko‘targan 1917-yilning oktabrida sodir bo‘lgan to‘ntarishni “yurt qayg‘usi” sifatida qabul qildi. Fitratning adabiy merosi rang-barang. U adib sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o‘zbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, she’r tuzilishining isloh etilishi, adabiy realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan muhim ijtimoiy muammolarning o‘zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo‘shdi. Fitrat ijodini shartli ravishda uch

davrga bo‘lish mumkin: **1-davr** 1909-1916-yillarni o‘z ichiga olib, Turkiya taassurotlaridan ilhomlangan holda jadid ma’rifatparvari sifatida ijod qilgan. **2-davr** 1917-1923-yillarni qamrab oladi, bu davrda Fitrat milliy istiqlol g‘oyalari bilan to‘yingan asarlar yozadi. Ijodining **3-davri** 1923-1937-yillarga oid bo‘lib, Sho‘ro maxfiy xizmatining doimiy nazoratida bo‘lgan Fitrat asosan ilmiy va pedagogik ishlar bilan shug‘ullanadi. Fitrat zullisonayn adib bo‘lib, adabiyotga shoir va adabiyotshunos sifatida kirib kelgan. Istanbuldag‘i to‘rt yillik ta’limi davomida faqat forsiy tilda ijod qilgan. Ko‘p o‘tmay u o‘zini dramaturgiya va prozada ham sinaFitratning bizgacha yetib kelgan o‘zbek tilidagi she’rlari, 1917- va undan keyingi davrlarga oid. Ma’lumki, fevral inqilobidan keyin Turkiston xalqlarining mustaqillikka erishishlari uchun juda qulay fursat tug‘ilgan. Fitrat shu davrda xalqni mustamlakachilik kishanlarini parchalab, milliy istiqlol uchun kurashga da’vat etuvchi she’rlar yozishga kirishgan. Ammo an’anaviy aruz vazni, uning nazarida, bunday zamonaviy g‘oyani ifodalash, xalqni oyoqqa turg‘azish va safarbar etish kuchiga ega emas edi. Shuning uchun ham Fitrat turk va tatar she’riyatlarida shakllangan, o‘zbek xalq og‘zaki she’riyatida ayrim unsurlari bo‘lgan sochmani milliy adabiyotimizga olib kirdi. O‘z ona diyorini ozod va hur ko‘rishni orzu qilgan shoir „Yurt qayg‘usi“ deb nomlangan bir she’r va to‘rtta sochma yozib, ularda hurriyat uchun kurash g‘oyasini baralla kuylaydi.

Ijodkor mazkur sochmalarida Turkistonni xo‘rlangan va xorlangan Ona obrazida tasvirlab, bu jabrdiyda Onani zulmkorlardan xalos etish uchun Amir Temur singari insonlarni qo‘msaydi b ko‘rdi. U „Munozara“ (dastlabki nomi „Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi“) asarini Turkiyaga borishdan oldin, 1905-1907-yillarda yaratgan. „Sayha“ („Chorlov“, „Na’ra“) (fors tilida), „Sayyohi hindi“ („Bayonoti sayyohi hindi“), „Rahbari najot“, „Tarixi Islom“ asarlarini esa Turkiyada tahsil paytida yozgan va „Munozara“ 1908-yilda, „Sayha“ 1910-yilda, „Sayyohi hindi“ 1913-yilda Istanbulda bosilib chiqqan. „Rahbari najot“ va „Oila“ 1915-1916-yillarda Bokuda nashr qilingan. Bu asarlar o‘sha davrdayoq

xalq orasida keng tarqaldi. Horijiy tillarga ham o‘girildi. Masalan, Munozara“ 1909-yillarorrasida turk, ozarbayjon tillarida, „Sayyohi hindi“ rus tilida chop etilgan. „Rahbari najot“ni esa do‘sti, shoir va noshir Abdulvohid Burhonov Sankt-Peterburgda nashrdan chiqargan. Bulardan tashqari uning „Mavludi Sharif“, „AboMuslim“, „Begijon, asarlarvadastlabkishe’rlari“, „Oyna“, „Taraqqiy“, „Sadoi Turkiston“, „Turon“, „Hurriyat“, „Buxoroi Sharif“ kabi gazeta va jurnallar elon qilindi.

Xulosa qilib aytganda Abdurauf Fitrat adabiyot tarixida va jadidchilik borasida o‘chmas iz qoldia olgan desak hech shubhasiz, o‘zbek jadidchilik adabiyotida mukammal o‘rin egallagan. Sayha va Hind Sayyohi Bayonoti asarlarini butun dunyo tanigan sahifalarida e’lon qilindi.

ADABIYOTLAR RO’YHATI

Unutilmas siymolar (Jadidchilik harakatining namoyandalari)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi DJQA, „Akademiya“,
↑ Toshkent, 1999

«O‘zbekiston adabiyoti va san’ati», 1987, 11-dekabr (tabdilchi N. Karimov)

↑ Vatan tarixi. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O‘. Ubaydullayev, „Sharq“

NMAK BT, Toshkent, 2003

↑ „Абдурауф Фитрат - один из первых узбекских профессоров“. 2020-yil 27-oktyabr).